

ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

DEFEKTOLOGIYA KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruhsat beraman”
Pedagogika-psixologiya fakul’teti dekani
_____ prof.X.Meliyev
“ _____ ” _____ 2013 y.

5141800 – Defektologiya yo`nalishi bo`yicha bakalavr
darajasini olish uchun

“Nutqi to’liq rivojlanmagan bolalarni savodga o’rgatishning
texnologik asoslari” mavzusida bajargan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: Imomova Iroda
“Defektologiya” yo`nalishi
IV kurs bitiruvchisi, talabasi
Ilmiy rahbar: prof.L.R.Mo`minova

Ishni himoyaga tavsiya etaman: **Tib.f.n. T.Ikromov** _____
(imzo)

BMI Defektologiya kafedrasi yig`ilishining qarori bilan
(Qaror № __, _____ 20__y) himoyaga tavsiya etildi.

Kafedra mudiri: p.f.n. R.Nurmatov _____
(imzo)

Jizzax – 2013

MUNDARIJA.

KIRISH

I-BOB. Nutqi to`liq rivojlanmagan bolalarni savodga o`rgatish texnologiyasini ilmiy nazariy asoslari.

1.1 Nutqi to`liq rivojlanmagan bolalar ta`limi masalalarini korikssion pedogagik va pisixologik taxlili.

1.2 Nutqi to`liq rivojlanmagan bolalar nutqini tekshirish va taxlil qilish metopdlari.

II-BOB. Nutqi to`liq rivojlanmagan bolalarni savodga o`rgatishni eksperimental o`rganish.

2.1 Arikulyatson aparat matoriga va tovushlar talafuzini tekshirish natijalari tahlili.

2.2 Maktabgacha yoshdagi bolalarning fonomatik idroki, lug`at boyligi va nutqining gramatik tuzilishini o`rganish.

2.3 maktangacha yoshdagi nutqi to`liq rivojlanmagan boalarni savodga o`rgatishga oid metodik tafsiyalar

Xulosa:

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati:

Kirish

Prezidentimizning xar bir nutqi, asarlarida boalar, yoshlar, mamolariga alohida o`rin berilishi mustaqil O`zbekiston fuqorolari shahsini shakillantirish, shahs izmidagi shahslar aro munosabatlarning, manaviyat va marifatning o`rni qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligini isbotlaydi.

Zero, bozor munosabatlariorga o`tishida sodir bo`lishi mumkin bo`lgan manaviy tannazullarning oldini olish yuzaga kelishi ehtimoli mavjud bo`shliqning o`rnini sog`lom g`oyalar, ilmiy asoslangan bilimlar, tushunchalar va dunyoqarash bilan to`ldirish barkamol inson shahsini shakillantirishdagi muhim vazifadir. Xalqimizning madaniyatini, urf odatlarini, odob ahloqi va marifatini bola egallashi uchun ruhan, aqlan va jismonan sog`lom bo`lishi kerak.

Ma`lumki, nutqdagi entelektida va boshqa muhim sohalarida nuqsoni bo`lgan bolalarda hayotiy tajriyba, muloqat tajribasi kam bo`ladi. Natiyjada bolaning oyladagilar, bolalar bog`chasiidgilar, ko`chadagilar, atrofdagilar bilan munosabati va muloqati qiyinlkashadi. Nutqdagi nuqsonlar bolaga o`z fkrini erkin ifodalashga to`squinlik qiladi. Atrofdagilar bilan teng sherik sifatida muloqat qilish qiyinlashadi.

Ilimiy tadqiqotning dolzarbligi shundakiy:

Nutq rivojlanishidagi nuqsonlar bolalarning intelektual tarraqiyotiga, ularning savod o`rganishiga, tayyorlashga, savod o`rganishiga salbiy tasir etadi. Shuning uchun nutq nuqsoni bor bolalarni nutq rivojlanishining o`ziga hos hususiyatlarini o`rganishning ahamiyati katta.

Hozir sog`lom avlad tarbiyasiga juda katta e`tabor berilayotgan bir davrda “Talim to`g`risidagi qonun” “Sog`lom avlod davlat dasturi”ni amalga oshirishda, farzandlarimizni komil inson qilib tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etmoqda. Dar haqiqat nutqi to`liq rivojlanmagan bolalarni ijtimoiy hayotga va o`qishga tayyorlash, maktabgacha tarbiya ishida psihik jarayonlarni va shahslararo munosabatni shakillantirish, tarbiya va ta`limning asosini tashkil etishi kerak. Bu bolalarning boshlang`ish sinflarda muvaffaqiyatli o`qishlari uchun zarur bo`lgan bilimlar va ko`nikmalar bilan qurollantirish, bolalarni o`yin, mexnat va o`quv

faoliyati jarayonida kelajakka-maktabga va hayotga moslashtirib berish lobopet va tarbiyachilarning eng muhim vazifalaridan biri.

Logopedik mashg`ulotlar jarayonida lug`at boyligini rivojlantirish, so`zning ma`nosi mazmunini idrok etish, nutqning leksik tomonining shakillanishi bola bilim jarayonining rivollinishida katta ahamiyatga ega. Chunki so`z nafaqat muomala va shaxslararo munosabat vositasi, balki tafakkur rivojlanishining asosiy negizidir.

Kishilarning mukammal, yetuk inson bo`lib shakillanishida aqliy qobiliyat va nutqiy malakalar katta o`rin tutadi.

L.I. Skovorsov (1989) nutq til haqida obrazliy qilib shunday deydi: “Ijtimoiy madaniy hayotda til normalari bir mashaldirki, nutq faoliyatining qirg`oqsiz okyanida til kollektivi unga qarab intiladi, tayanadi”. Atoqli psixolog S.YA. Gubinshteyn nutqning ahamiyati haqida quydagi fikrni bildiradi: “Fe`loginezda bo`lgani kabi Ontoginezdaham nutq daslabki aloqa vosetasi bo`lgan bo`lsa, keyinchalik nutq shunday qurolga aylanadiki uning yordamida inson o`z fikrlarini bayon etadi”.

M. B. Mejikovskaya fikricha, nutq inson faoliyatini barcha ruhiy ko`rinishlariga jalb qilingan: insonning idroki, hotirasi, taffakuri, tasavuri, axloqiy qarashlari barchasi “Nutqlashgan”dir. Ularning nutqiy rivojlanishini erta korreksiya qilish, umumiy va maxsus pedagogikaning muhim muammosidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq nuhsionlarini o`z vaqtida aniqlash va korreksiya qilish nutq shakillanishida sezilarli natijalarga erishish imkonini beradi. Bolalar bog`chasida bolalarni har tamonlama jismoniy, aqliy, axloqiy rivojlantirish ishlari, nutqiy ta`lim jarayonida amalga oshiriladi. Bolalar bog`chasi bolalarni maktabgacha tayyorlar ekan, birinchi navbatda, ularni to`g`ri nutqga o`rgatish, ularga ona tilining boyligini imkoni boricha chuqquriroq singdirish lozim.

K.D.Ushinskiy aytganidek “Bizning vazifamiz bolani sinchkov kuzatishga, ko`rgan va eshitganlarini yagona, to`g`ri fikrga birlashtirishga, eshita olishga, ko`rishga va bu fikrni so`z bilan to`g`ri ifodalashga o`rgatishdir”. Chunki nutq bolaning har tomonlama kamol topishida muhim o`rin tutadi. Bola nutqining to`liq

shakillanishi asosan olti yoshgacha to'g'ri keladi. Bu yoshda nutqi normal rivojlanayotgan bola nutqidagi barcha tovuishlarni, talafuz etishni, so'zlarni o'z o'rnida qo'llashni, o'z fikrini mantiyqiy to'g'ri bayon etishni mukammal egallaydi. Lekin ba'zi bolalarda nutq shakillanishida o'z tengdoshlariga nisbatan orqada qolish, nutq buzilishlarinin g turi ko'rinishlari uchraydi. Har bir nutq kamchiligi o'ziga hos tarzda namoyon bo'lib, u bola rivojlanishiga turlicha salbiy tasir ko'rsatadi. Nutq buzilishlariga ega bolalarni nutqga ko'pincha normal rivojlanishdan orqada qolishi, aqliy-hissiy sferalarini takomillashmasligiga olib keladi; bollarni maktabgacha tayyorlashda bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bolalarda uchraydigan nutqiy nuqsonlar turli formalarda namoyon bo'ladi. Ba'zi bolalarda nutqning tovush talafuz tamonidan kamchilik bo'lsa bashqalarda esa nutqning to'liq rivojlanmaganligini yoki nutqning tempi, ritmida kamchliklar uchraydi.

Normal rivojlanayotgan 6-7 yoshli bolaning umumiy va nutqiy rivojlanishi darajasi maktabda ta'lim olishga ma'lum jihatdan yetarli ko'nikmalarga ega bo'lishini ko'rsatadi. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarda maktabda ta'lim olishga, savod o'rganishga zarur bo'lgan nutqiy ko'nikma va malakalar yetarli shakillanmagan bo'ladi. Bu esa maktabda ta'lim olish, savod o'rganish jarayonida bola oldida bir qator qiyinchilikni tug'diradi va o'zlashtirishda tengdoshlaridan orqada qolishiga olib keladi.

“Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanmaganligini bartaraf etishda korreksion pedagogic ishlarning asosi” mavzusi bo'yicha shug'illangan L. G*. Mo'minova (1992-yil) o'z ishlarida o'zbek bolalardagi nutqning to'liq rivojlanmaganligini keltirib chiqaradigan sabablarni, ularning oldini olishi, korrekstion pedogogikmish jarayonini qanday tashkil etish haqida fkir bildiradi va bu nutq nuqsonini bolalarning keying rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishini ilmiy tamondan isbitladi.

Nutq nuqsonlarini, ularni namoyon bo'lishini o'rganish tarixdan juda dolzarb bo'lib, bu sohada juda ko'p izlanishlar olib borilgan. Lekin nutqi to'liq

rivojlanmagan bolalarni savodga o`rgatishga tayyorlash va savod o`rgatish masalasi birorta adabiyatda ilmiy asoslab berilmagan.

O`zbekiston respublikasida Nutqi to`liq rivojlanmagan bolalar maxsus logopedik yordamining tashkil qilinishini o`rganib, o`rganilayotgan muamoga oid adabiyotlarning yo`qligi aniqlandi. Nutqi to`liq rivojlanmagan bolalarni savodga o`rganishining o`ziga xos tamonlari ishlab chiqilmagan. Maxsus adabiyotlarni tahlil qilish nutqi to`liq rivojlanmagan bolalarni savodga o`rgatish muamosi izlanishni talab etishni ko`rsatadi. Shuning uchun mazkur mavzuni o`rganish hozirgi kunda ayniqsa dolzarb. Shundan kelib chiqib malakaviy bitiruv ishi mavzusini aniqladik.

Ilmiy faraz - Nutqi to`liq rivojlanmagan bolalarga lotin alifbosi asosida savod savod o`rgatishda bu bolalarning nutqini o`ziga xos tamonlari xisobga olinib, ish jarayoni to`g`ri tashkil etilsa, tovush tahlil tarkib qilish, lug`at boyligi, nutqning grammatik tamoni mahsus rivojlantirilsa ularni savodga tayyorlash va o`rgatish mumkin deb ehtimol qilamiz.

Tekshirish obekti – maktabgacha tarbiya muosasalari tayyorlav guruhi olti yoshli bolalarni savod o`rgatishga tayyorlash jarayoni.

Tekshirish maqsadi - Nutqi to`liq rivojlanmagan bolalarning nutqini o`ziga xos tamonlarini, ularni savodga o`rgatish yo`llarini samaraliy usullarini o`rganish.

Tekshirish o`z oldiga quydagi vazifalarni qo`yadi: mavzu bo`yicha adabiyotlarni o`rganish va tahlil etish;

- 6 yoshli maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o`rganish;
- Nutqi to`liq rivojlanmagan maktabgacha yoshdagi bolalarni savodga o`rgatishga tayyorlasga doir tafsiyalar berish.

Tekshirish metodlari – tekshirishning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda tekshirish davomida quydagi metodlardan foydalanildi:

- Mamo bo`yicha pedogogik psixologik va mahsus adabiyotlar tahlili;
- Tarbiyalanuvchilarning tibbiy pedagogik xujjatlarini o`rganish;
- maktabgacha yoshdagi 6 yoshli nutqi to`liq rivojlanmagan bolalar nutqini idedval tekshirish;

- maxsus boqcha tarbiyachilari va logopedlar bilan suhbat;
- tekshirish natijalarini sifat va miqdor jihatdan tahlil etish.

Tekshirishni tashkil qilinishi ilmiy tatqiqot ishlari Jizzax shaxridagi “Orzu” va ***** son bolalar bog`chasida olib borildi. Tekshirish ishimizda bolalar bog`chasining tayyorlov guruh bolalari ishtirok etdilar.

Tadqiqotning metodologik asosi.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi “Talim to`g`risida”gi qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” , yurtboshimizning asarlaridagi ta`lim-tarbiyaga oid nazariy fikrlar, shaxsning mohiyati, faoliyati, o`tmish mutaffakirlarning talim va tarbiya, komil inson to`g`risidagi ta`limotlari, talim-tarbiyaga tizimli yondashuv, hamdo`stlik mamlakatlari, respublikamiz olimlarining mazkur muammoga oid tadqiqot ishlari bituruv ishining nazariy metodologik asosini tashkil etdi.

Malakaviy bituruv ishi, kirish II bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yhatidan iborat.

I bob. Nutqi to`liq rivojlanmagan bolalarni savodga o`rgatish texnologiyasining ilmiy nazariy asoslari.

Nutqi to`liq rivojlanmagan bolalarni ta`lim masalarini korreksion pedogogik va pishxalogik ta`lim. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqining umumiy rivojlanmaganligini (Nutqi to`liq rivojlanmagan bolalarni) tekshirish va uni bartaraf qilish masalasi hozirgi kunda katta qiziqish uyg`otib kelmoqda, uni nazariy va ammalij jihatdan chuqurroq o`rganishni talab etmoqda. Eshitishi va itelekti normada bo`lgan bolalarda nutqining umumiy rivojlanmaganligi deganda nutq analogiyasining shunday formasi tushuniladiki, bunda nutqning barcha tarkiybiy qisimlarining shakillanish buzilgan bo`ladi. (Nutqning fonetik-fonematik, leksik va grammatik tamoni) nutqning to`liq rivojlanmaganligini ajratgan holda R.E. Lvina (1951-yil) takidlab o`tganidek, bu nuqson patalogiyasining qandaydir, bir shakli bo`lmasdan balki turli xil sabablar mexanizimklar orqaliy yuzaga keladi va tegishlkiycha nuqsonlar va alomatlari xar hil bo`lgan tuzilmaga egadir. U

takidlab o`rganidek, anashu buzilishning tuzilishi va sabablarini tahlil qilishda nutq faoliyati buzilishining muayyan yetakchi komponentlariga va uning xarakteriga tayanish lozim. Shu qoidaga maofiq qoida nutqning dezartriya, rinalogiya alalgiya tufayliy to`la rivojlanmaganligi va nutqining birlamchi to`la tarraqiy etmagan hamda intellekti va normal etishni birlamchi saqlangan bolalarning chala tarraqiy etganligi ajratiladi. Nutqi to`liq rivojlanmaganlik ilimiy tushuncha bo`lib, u sobiq itfoq PFA defektalogiya ilmiy-tadqiqot insitutining logopediya sektorida ishlab chiqilgan va mamlakatimiz logopediyasining ravnaq topishida eng samarali yutuqlaridan biri bo`lgan. PFA defektalogiya ilmiy tadqiqot instituting laboratoriyasida barcha turdagi nutqning buzilishlarini o`rgana boshladilar. Nutqi buzilgan bolalarning maxsus o`qitishi va tarbiyalanishining imiy jihatdan asoslangan yo`llarini ishlab chiqishga katta etibor berilgan. Shu munosabat bilan zamonaviy logopediya yaqqol ifodalangan pedagogik yo`nalishini kasbib etdi. Nutqi to`lia rivojlanmaganlik bolalar pisixik faoligini sezilarli darajada pasligi, nutqiy aloqa motivatsiyasining bo`shlig`i bilan ajralib turadilar, ular apatik, befarq, tez touquvchan negatif , emosional, reaksiyalarning yuzaga chiqishiga passif bo`ladilar yoki aksincha o`zlarini tuta bilmaydilar, kam maxsulliy faoliyatga ega bo`ladilar. Pisixamator funksiyalarning shakillanmaganligining yoki ularning rivojlanishida ancha orqada qolish bolalarda o`z o`ziga xizmat qilishida bir qator qiyinchilikarni keltirib chiqaradi: nozik ixtiyoriy harakatlarni talab qiluvchi xolatlar (tug`ma qadasi va x/z). Bu qiyinchiliklar fazoviy orientirofkaning buzilishi natijasida yanada chuqurlashadi. Bunday bolalarda fazoviy orentirofka bo`yicha topshiriqlar bevosita iltimos orqaligina bajarilishi mumkin.

Bundan tashqari nutqi to`liq rivojlanmagan bolalarda fazoviy gnozis va praksis buzilishlar kuzatiladi.

Adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida biz shuni guvohi bo`ldikki, ko`pgina mamlakatlarda ayniqsa maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq buzilishlari ko`p foizni tashkil etar ekan. Bu nutq nuqsonlari turliy mamlakatlarda turliycha tarqalgan. Bolaning yashash sharoitiga qarab nutq nuqsonlari turlicha namayon bo`ladi. Birgina AQSHga 5-21 yoshar axoli orasida nutqi buzilgan 200.000 kishi

uchraydi. Qator xorijiy tadqiqotchilar xisoblashlaricha, xar birinig bolalarining 7-8 tasida nutq to`la rivojlanmaganligi kuzatildi. Nutq to`liq rivojlanmaganlik 7 yoshar bolalarning (maktab yoshidagi) 10-13 foizida qayd qilinadi. Bu kamchilik olti yashar bolalarning 10-15 foizida, 10-14 yashardagilarning 5 foizida kuzatiladi. (PF doktori, profesori L.R. Muminova 1922-yilda keltirgan ma`lumotlari).

Bolalarda nutqning to`liq rivojlanmaganligi kabi eng murakkab nutq nuqsonini keltiribchiqaradigan sababi: otadan psixik kasalliklar bo`lishi, alkogomizm, onadagi alkogomizm, psixik, og`ir salomatlik kasalliklar onaning homiladorlik vaqtida kun tartibiga roya qilmasligi, tug`ruqning og`ir o`tishi (tug`rikning tez bo`lishi, bolaning aspiksiya bilan tug`ilishi, tug`rikdagi trammalar) kamqonlik, raxit, ichki orginlar kasalliklarini asoratlari, umumiy salomatlik zayifligi, tug`riqdan keyingi davirda bolalardan bo`lgan genetik kasalliklar. Bundan tashqari ishtimoiy sharoyitlar oilada ikki tillilik, pedagogik jixatdan qarovsizligi natijasidaxam kuzatilishi mumkin. Rosmana ifodalangan nutq buzilishlari hammadan ko`proq miyyaning po`sloq, ayniqsa peshona, chakka liqildoq bo`limlari shkastlanganda yuzaga keladi. Nutq buzilishlarini tahlil qilishda miyyaning qaysi joyi zararlanganligiga qarab taraqqiy etuvchi bola miyyasining katta qon konfensator imkoniyatlari borligini xisobga olmoq zarur. Miyyaningqachon shkastlanganligi nutq yetishmovchiligi tuzulmasiga va kompensatsiya jarayonlariga katta tasir o`tkazadi. Hozirgi vaqtda tastiqlanishiga, ko`p jixatdan umumman miya rivojlanishi nuqsonining haraktiri zararlanishining vaqtiga aloqador bo`ladi. Turliy xil zararlar (infeksiyalar, zararlanishlar) tasiri ostida odamga ilk embriogenes davrida miya eng og`ir darajada jaroxatlanadi. Noxush shart sharointlarda bolaning ona qorni ichdagi hayot davomida harakatlar nutq va aqil buzilishlar ro`y bergan holda umuman butun miyyaning to`la rivojlanmasligi kuzatiladi. Manashu zararlanishlar natijasida ko`p hollarda nutqning to`liq rivojlanmay qolishi kuzatiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq to`liq rivojlanmaganligi har xil darajada namoyon bo`lishi mumkin bo`ladi. Qabul qilingan nutq bo`lmastlikdan to`la leksik gramatik va fonetik - fonematik rivojlanmaganlik elementlari

ifodsiz, yoyiq jumla tuzaolmaslikgacha boradigan nutq rivojlanmasligi shular qatoriga kiradi.

Nutqning to'liq rivojlanmaganligining I darajasi bu nutqning bo'lmasligi bilan xarakterlanadi. Bunday bolalar nutqsiz bolalardir, 4-6 yoshdagi bunday bolalarning lug'at boyligi kambag'al, noaniq bo'ladi. Nutqi tovushga taqlid qilish, tovushlar kompleksi bilan chegaralangan bo'ladi. Narsa va hodisalarni defentsilanmagan xolda ifodalaniladi so'zlarning ko'p ma'noga ega bo'lishi xarakterli xususiyat bo'ladi: "taq-taq"-qoshiq, "umma"-choy. Bu bolalarning pasiv lug'ati aktiv lug'atiga qaraganda ancha boyroq bo'ladi, ularda nutqni tushinish qobiliyati ancha pasaygan bo'ladi. Tovush talafuziga noaniqlik beqarorlik, noaniqlik amoragrafik tovushlarini bir-birlari bilan almashtirish. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarga analizi bo'yicha berilgan topshiriqlar tushinarsiz. Professor P.E. Levina (1951) rahbarligida defektologiya ITI ning logopediya sektorida o'tkazilgan tadqiqot natijalari ko'rsatib berishicha mazkur toyifadagi bolalar nutqini anglashi susaygan bo'ladi. Ular tanish vaziyat sabab bo'lgan "Kitobni portfe'lga solib qo'y" yo'l-yo'riqlarni to'g'ri tushinadi, raqobatli vaziyatlarda "Kitobni qalam ustiga qo'y" topshiriqlarda ularni bajarishda darhol xatoliklar paydo bo'lladi. Bu toyifadagi quruvchi to'liq to'liq rivojlanmagan nutqli bolalar in, uya, shup, tom, shox navdalar va xakozo so'zlarni tushunmaydilar.

Amalda so'zlarning grammatik o'zgarishlarini anglash kuzatiladi. Ular quyidagi "Qo'ziqorin qani?" tipidagi savollarga javob berishda qiynaladilar. Bolalar xulosa tuza olmaydilar, demak ularda grammatik konsturksiya ham mavjud bo'lmaydi.

Bundan tashqari ular nutqida ko'proq bir ikki bo'g'inli so'zlar uchraydi, ana shu bo'g'inlar sonini ko'paytirishga uringanlarida bo'g'inlar soni 2-3 ta qisqaradi. Fonematik idrok qilish keskin darajada buzilgan bo'ladi, ammo aytilishi o'xshash bo'lsa-da, mazmun turlicha suratlarni tanlashda ham qiyinchilik paydo bo'ladi. (tosh, bosh, qish).

Nutqi to'liq rivojlanmaganlikning II darajasidagi bolalar dastlabki keng qo'llaniladigan oddiy nutqni bo'lishi bilan xarakterlidir. Bolalar nisbatan lug'at

boyligiga ega, ma`lum oddiy farazlardan foydalanadilar. Ular predmedlarni, xodisalarni nomini aloxida nomlay oladilar. Lekin ularda qo`pol nutq nuqsonlarini kuzatish mumkin. Lug`at boyligi tengdoshlariga nisbatan ancha past, umumlashtiruvchi so`zlarni (mebel, kiyim, meva va x/k) bilmaslik kuzatiladi. Xarakat kam belgisini bildiruvchi so`zlardan foydalanishda qiyinchiliklar kuzatiladi, predmet nomi, shakli, kattaligi ulchami, rangi va boshqa belgilarni belgilashni bilmaydilar, fe`l sonni ot songa moslashtira olmaydilar.

Yosh normasiga nisbatan tovushlar talaffuzi, fonematik idroki past bo`ladi. Bolalar bo`g`inlar o`rnini almashtiradilar, undoshlar ketma-ket kelganda tovushni qisqartiradilar. Bolalar gap tuzishda qator gramatik xatolarga yo`l qo`yadilar:

I. Otlarni bosh kelishikda, fe`llarni xozirgi zamonning birlik yoki ko`plik sonida uchinchi shaxs shaklida ishlatishadi.

II. Kelishik shakillarini almashtiradilar (mashinada bordik, o`rniga, mashinadan bordik).

III. Sifatlarni va fe`llarni ot soni bilan kelishtira olmaydilar.

IV. Fe`l sonini ot soni bilan kelishtira olmaydilar.

Taklif etilgan konstruksiyalardan foydalanishda ham bolalar qiynaladi. Old ko`makchilar tushurib qoldiriladi, otlar esa dastlabki shakilda ishlatiladi, shuningdek old ko`makchilarni almashtirib qo`yish xollari ham uchrab turadi. Ularning nutqida bog`lovchilar va yuklamalar kamdan-kam uchraydi. Nutqning fonetik tamoni yuqorida aytganimizdek bola yoshidan orqada qoladi: bolalarda yumshoq va qattiq tovushlarni shipilovchi, hushtaksimon, jarangdor sonlarni buzib talaffuz qiladilar, so`zlarda bo`g`in tarkibi buzilgan bo`ladi.

Ko`pincha bola so`z shakillarini talaffuz qilganda ularning tovush bilan to`ydirishi qoidasini buzadi, bo`g`inlarni almashtigan holda ishlatadi, tovushlarni qisqartiradi. Bunday bolalarni maxsus tekshirshganda odatda ularning aql-idroki yetarlicha rivojlanmaganligi, ularning tovushb taxlili va sitezini o`zlashtirishga tayyor emasligi aniqlanadi. (aytishi, tovushga mos rasim tanlay olmaydi).

Nutqi to`liq rivojlanmaganlikning III darajasiga mansub bolalarda aytilgan frazli nutqida leksik-grammatik va fonetik-fonematik jixatdan

rivojlanmaganlik elementlari qo'zg'atiladi. Bolalar nutqga ega bo'lgan holda kishilar bilan aloqa bog'lay oladilar, lekin buni o'ziga yaqin kishilar (ota-onasi tarbiyachisi) ishtirokida muayyan tushunishi mumkin bo'ladi. Bu bolalar erkin holda aloqa o'rnatmaydilar. Tovushlarni buzib talaffuz qiladilar. Lug'ati ham yoshiga aqliy darajasiga nisbatan past. Tekshirishlar natijasida shu ma'lum bo'ldiki, bolalar gaplarni, gaplarida so'zlarni oxirigacha gapirmaslik xotolar kuzatiladi. Ular qo'shimchalar qo'shilishi bilan so'z manosi o'zgarishi bilan tushinmaydilar (p.f. doktori L.P. Mo'minova 1992 y).

Fonetik xatolar "c" tovushini "t" tovushlar o'rnida qo'llash, shundek tovushlar guruhi ham artikulyasiya bo'yicha soda tovushlarga ,ko'pincha osom talafuz etiladigan tovushlarda kuzatiladi. ("L" tovushini "V" tovushiga). Logoped ketidan 3-4 ta so'zlarni to'g'ri talafuz qiladilar. Lekin o'zlari mustaqil talafuz qilganlarida bo'g'inlarni tushirib qoldirib yoki o'rnini alamashtirib talafuz qiladilar. Bu bolalar bo'g'inlar nomini biladilar, lekin ularga "Buyumni nomini aytib ko'rsat" deganda, chalkashib ketadilar. Ular so'z birikmalarni quyidagicha tuzadilar:

-vagonni poyezd bilan;

-qirqayabdi –qiqyabdi

Suratlarga qarab harakatlarni to'g'ri ko'rsatadilar, lekin nutqda noto'g'ri qo'llaydilar. (sho'rvani kosaga suzyabdi - o'rniga kosaga sepyabti) qatorgina taklif qilingan harakatlardan bolalar, bichadi, qo'yadi, uchib o'tadi, sakraydi, dumalab tushadu kabilarni tushunmasdan ularni ko'rsata olmaydilar. Rang tuslarini bilmaydilar shakillarni almashtiradilar; dumoloq buyumlarni bilishlari mumkin, lekin uchburchak, kvadrat, ayniqsa to'g'ri to'rburchak shakillarini ajrata olmaydilar. So'z boyligini tahlil qilish quyidagi leksik hatoliklarning o'ziga hosligini aniqlash imkonini beradi:

I. Bir qisim nomini butun buyum nomi bilan almash (yoqa, eng-ko'ylak, chonak cho'mragi).

II. Buyum nomini harakat nomi bilan almashtirish (botinka ipini o'rash (bog'lsh)sotuvchi-sog'uvchi xola).

III. Vaziyat va tashqi belgilar bo'yicha o'xshash so'zlarni almashtirish.

IV. Turli xilk tushinchalarni (qush nomlari, o'simliklar nomlari) bilaslik kuzatiladi.

V. Belgi nomlarini, uzunliklarini almashtirish (uzun-qisqa, qalim yupqa).

Nutqni to'liq rivojlanmaganligini olimlarimiz turli jihatdan o'rganganlar, psixologo-pedagogik (P.E. Levina (1951-1961) psixologo-livistik (V.K. Orifinskaya 1959-1963; E.F. Sobotovich 1984; V.A. Koshikov 1985) tibbiy pedagogik (S. Lyapidevsky 1969, E.M. Mastukova 1975 y va x/k lar). Bir qator tekshirishlarda bolalarda nutqning umumiy rivojlanmaganligi masalasining tovushlar talaffuz bo'g'in strukturasi tizimini o'zlashtirishlari P.E. Levina, G.A. Kashe, A.K. Markova, O.N. Konova ishlarida yoritilgan. Nutqning to'liq rivojlanmaganligining lug'at tarkibi va grammatik tuzumning o'ziga xosligi P.E. Levina (1951). V.K. Vorobeva, B.M. Grishpun, L.F. Spirova (1985), N.V. Nikashina (1967y) G.I. Gorenkova, T.B. Filecheva (1973), G.V. Cherkina (1985) A.V. Yastrebova (1985), E.F. Sobotovich (1984), A. Kovshikov (1984) va boshqa olimlarning ilmiy takshiruv ishlarida ko'rsatilgan. So'ngi o'n yilliklar, ayniqsa urishdan keying (40-60 yillar) moboynda ana shunday murakkab va og'ir nutq buzilishlari xisoblangan afaziya, alaliya, dizartriya, rinalogiya, duduqlanishni tadqiqot qilishga turli hil yonashuvlar ishlab chiqildi. Nutqni to'liq rivojlanmaganlik haqidagi datlabki yetarlicha bo'lgan ma'lumotlarni biz nems shifokori A. Kussmaul (1972y) ishlaridan topdik. U bolalarga o'ziga xos nutq bo'lmasligining bir necha xodisalarini qisqa qilib bayon etgan bo'lib, ularni "Tug'ma afaziya" sabab bo'lgan buzilishlar deb atagan. Nutqni to'liq rivojlanmaganlikni tadqiq etishda R. Koen birinchi marta "Idiopadik alaliyaning" keng manzarasini ochib bergan.

R. Koen (1988) alaliya motor konsepsiyasining asoschisi bo'lgan, u "Tug'ma alaliyani" ko'proq tovush va bo'g'inlarni mutloqo talafuz etmaydigan bolalarga mansubdir, degan va bu kamchilikni funksional buzilish oqibati deb xisoblagan. Nutqni to'liq rivojlanmagan bolalarda talafuz etishning shakillanishi G.A. Kashe (1985) leksika, nutqning grammatik tuzilishini va fonetikasi

rivojlanishining u yoki bu sabablarga ko`ra yetishmovchilik tariqasida belgilaydi. Nutqi to`liq rivojlanmaganligida nutqning juda tushinarsiz bo`lib qolishi qayd qilinadi. Bunga sabab faqatgina tovushlarni to`g`ri talafuz etish bo`libgina qolmasdan balki bo`g`in tarkibi har-xil bo`lgan so`zlarni talafuz etishda kuzatiladigantalaygina qiyinchiliklarham yuz berishidir. Bu qiyinchiliklar ayrim tovushlarni nutqda qo`llay olmaslik o`rnini almashtirish xollarida ifodalanadi. Muallif kiyinchalik nutqi to`liq rivojlanmaganlikga uchragan bolalarda tovushlarni talafuz etishning shakillanganligi ham kuzatiladi. G. A. Kashe (1971) fikrini davom etirib nutqi to`liq rivojlanmagan bolalarni o`aitish usulini ishlab chiqar ekan, anashu kamchiligi bo`lgan bolalarda, tovush chiqarish xususiyatlarini ko`rsatib o`tadi, shunda u o`qitishning quydagi yo`nalishlarini ko`zda tutadi:

1. Tovushlarni talafuz etishni o`zlashtirish.
2. Nutqning tovush-bo`g`in va ritmik tuzilishini shakillantirish, yangi so`z va iboralarni talafuz etishni o`zlashtirish.

Bolalarning og`zaki nutqini rivojlantirish va takomillashtirish, birinchi navbatda fonetik (fonematik) morfologik va sintaksik umumlashtirishlari shakillangtirish eng muhim ish sanaladi. Tovushlarni talaffuz etishini rivojlantirishi va tovush tahlili ustida olib boriladigan ishlar mohiyati tovushlarni turi aytishi bilan bir paytda (individual, muayan izchillikda olibboriladi) so`z, tovush tarkibini tahlil qilish ko`nikmalarini rivojlantirishga doir frontal ish olib boriladi. Tuzatish ishi fonetik xulosalarni oydinlashtirish, kengaytirish va takomillashtirish ko`zda tutadi. A. Kashe (1971) bolalarda fonemalarni ajrata bilish qobiliyatini rivojlantirish bo`yicha logopedik isni shartli ravishda olti bosqichga ajratadi:

- I. Bosqich – nutqga dahli bo`lmagan tovush kompleksini taniy bilishi;
- II. Bosqich – tovush baland-pastligi, kuchi va tembri bo`yicha bir hil so`zlarni ajrata bilishi;
- III. Bosqich- tovushning tarkibiga ko`ra o`xshagan so`zlarni ajrata bilishi;
- IV. Bosqich-fonemalarini ajrata bilishi;
- V. Bosqich – bo`g`inlarni ajratishi;

VI. Bosqich – oddiy tovushlarni taxlil etish ko`nikmalarini rivojlantirishi.

E. M. Mastyukova (1973y) nutqining to`la rivojlanmaganlik sabablarini yoritib ekan, shunday deb yozadi: “nutq bola hayotining ilk yoshlarida jadallik bilan taraqqiy etishining eng yosh funksiyasi sanaladi”. Ma`lumki, hammadan ko`ra taraqqiy etuvchi yosh funksiya odatda jua nozik bo`lib ham chiqadi. Shu sababli ona qornida davrida bo`lsin, tug`riq davrida bo`lsin, bola hayotining dastlabki yillarida bo`lsin turli hil noxush ta`surotlar nutq buzilishiga olib kelishi mumkin.

L. F. Spirova va A. V. Yastrebovalarning (1984y) tadqiqotlari nutqi to`liq rivojlanmagan bolalar tomonidan maxsus uyishtirilgan o`qitish jarayonida tilning turli hil xususiyatlarni o`zlashtirish imkoniyatiga bag`ishlangan. Mualliflar klinik alomatlarining jipsligini, nutqning kech rivojlana boshlaganini, so`z boyligining kamligini, agrammatizlar talaffuz etishdagi fonemalaridagi nuqsonlarini qayt qiladilar. L. F. Spirova ko`rsatib berishicha, barcha nutq faoliyatining tizimli buzilishini ko`rsatuvchi a`lomtlar borligi nutqi to`liq rivojlanmaganlikka uchragan bolalarning muayyan toifasini ajratib qo`yadi. Mualliflar shartli ravishda maktabga boruvchi bolalar nutq buzilishlarining 3ta kata guruhga ajratadilar:

I guruh –nutqning fonetik buzilishlari bo`lib, ular ayrim tovushlarni talaffuz etishi nuqsonlarida ifodalanadi.

II guruh- fonetik tomonidan buzilishlar bo`lib, bola faqat noto`gri tallaffuz etibgina qolmasdan, balki ularni farq qila olmaydi.

III guruh- bu nutqi to`liq umuman rivojlanmagan bolalar bo`lib, bu nuqson ham tovush hamda nutqining mazmun borasidagi buzilishlarning tarqalishidan iborat. Nutqi to`liq rivojlanmaganlik ifodalanadi, ya`ni nutq umuman bo`lmasdan, nutq buzilishining yengil shakillarigacha namoyon bo`ladi.

Keyinchalik mualliflar nutqi to`la rivojlanmaganligining quyidagi korreksion tuzilishini taklif etishadi:

1. Tallaffuzni tuzatishi (tovush, so`zlar artikulyasiyasining qo`yilishi tuzatiladi, oydinlashtiriladi).
2. Tovush taxlili va so`z sintezini birin-ketin re`ja asosida rivojlantirishi.

3. Lug`at va nutqning grammatik tomonini rivojlantirishi. Ana shu tizim asosida keyn bolalar had-savotga o`rgatiladi (1985y).

Nutqning tola rivojlanmasligi haqidagi malumot asta – sekinlik bilan shu tariqa shakillanib boradi.

Chunonchi, N. N. Trautat tatqiqotlari ko`rsatib berishicha, nutqning to`liq rivojlanmasligini kelib chiqishi kortikal faoliyatining muayyan hususiyatlariga aloqadir. Shunday qilib, N. N. Trautatning tatqiqotlari nutqi to`liq rivojlanmagan bolalarda suksesiv sintezlar va propriosentiv taxlilining murakkab harakat stereotiplarining hosil bo`lish darajasidagi buzilishini aniqlab berdi. Muallif fikrini davom ettirib, shunday deb yozadi: “ruxiy jihatdan sustlik, cheklanish, tashabbussizlik to`liq rivojlanmagan nutqli bolalarni aqliy jihatdan rivojlanmagandek qilib ko`rsatadi, bu o`z navbatida ularning shaxsiyatiga hos asl holatlariga har doim ham muvofiq kelavermaydi”

Nutqi to`liq rivojlanmagnlik bo`yicha tatqiqotlar olib borilgan T. I. Jerenkovaning fikricha, nutqi to`liq rivojlanmagan bolalar nutqida impressiv agrammatizimlar kuzatiladi, muallif fikricha, bolalar so`zlarning grammatik sinflarini yaxshi ajrata olmaydilar, son shakillarini, qator toifasini kelishik shakillarini manosini etarlicha darajada tushinmaydilar, iboralarni tushinib olishda so`zlarning grammatik o`zgarishlariga etibor bermaydilar. Fikrini davom ettirib muallif shunday deydi nutqi to`liq rivojlanmagan bolalarda agrammatizim kuzatiladi.

S. N. Shaxovskayaning (1969y) tatqiqotlarida nutqi to`liq rivojlanmagan bolalar nutqida uchraydigan paadigmatik hatolar taxlili beriladi, chunonchi, ot toifalarini o`zlashtirishda ana shu dardga ucragan bolalar so`zlarni o`zgartirishning barcha hollarida qiynaladilar. Nutqi to`liq rivojlanmagn bolalarga logopedik ta`sir o`tkazish ana shu nuqson tuzilmasi bilan belgilanadi va shunda tatqiqotchilar uchta yo`nalishni belgilab berdilar:

I. Umumiy ruhiy rag`batlantirish.

II. ruhiy-motor funksiyalarini tuzatish.

III. nutqni umumiy rivojlantirish.

G.V. Guroves aytishicha nutq aktini kinematik va kinestetik jihatdan tashkil etish buzilishlarga bo`lgan alaliya shakillarini afferent yoki mator-markaz orti deb ifodalansa bo`ladi.

G.A. Volkova, M. A. Yarmakovich (1987) yozishlaricha 3 yoshli bolalarda esa nutqning umumiy rivojlanmasligini I va II darajasini kuzatiladi. Barcha bolalarda asosiy: sirg`aluvchi, shovqinli, sonar, jarangsiz, tishi oldi, orqa tovushlarga guruhini o`zichiga olgan talaffuz buzilishlari kuzatiladi. Bolalarda nutqiy va nutqiy bo`lmagan faoliyatiga qaratilgan diqqat, fonematik idrok, fonematik analiz sintez, tasauralar, rivojlanmagan bo`ladi. So`zning tovush tuzilmasi qo`pol buzilgan b`lib, bola nafaqat murakkab balki tovush tarkibi jihatdan soda so`zlarni ham to`g`ri talaffuz qila olmaydi. Jumlar tuzish, fragmentlar, agramatik, kelishik qo`shimchalari bog`lovchilar, yordamchi so`z turkimlarini noto`g`ri qop`llash kuzatiladi. Nutqni murakkab gramatik strukturalarini tushinishi buzilgan.

Bizga ma`lumkiy nutqi to`liq rivojlanmagan bolalarda nafaqat nutqning uchta komponenti balki ularda eshitish idroki erta rivojlanadi. Nutqning ilk bor rivojlanishida bola fonemalarni, akustik nuqtaiy nazardan puxta farq qilish qobiliyatiga ega bo`ladi.

Muallif fikrini davom etirib, nutqi meyyorda rivojlangan bolalar maktabgacha yoshda o`qishi uchun zarur bo`lgan so`zlar zaxirasini va tilning grammatik shakillarini o`zlashtirib oladilar, so`zlarning tovushli va marfalogik tahlilini o`zlashtirishga tayyorlanadilar. Lekin nutqi to`liq rivojlanmagan bolalarda bu jarayonlar juda kechikadi (1956y).

Nutqi to`liq rivojlanmagan bolalarga tashxis qo`yishda nima birlamchi, nutqiy rivojlanmaganlikmi yoki itelektual rivojlanmaganlikmi?, aniqlash lozim. Buni aniqlash uchun nutqi umumiy rivojlanmagan bolani har tamonlama tekshirishi uning rivojlanishini prenatal (tug`ruqgacha) notal (tug`ruq vaqti) va postanal (tug`ruqdan keyin) davri haqidagi, uning shaxsini rivojlanishi haqidagi zarur ma`lumotlarni olish zarur.

Taniqli tatqiqotchi A.B. Bogdanov-Berezovskiyning takitlashicha bolalar nutqini rivojlanmaganligi nafaqat barcha nutq faoliyatining zayiflashuvini keltirib

chiqaradigan miyanning ayrim bo`linmalarini buzilishi bilan bog`lagan. Balki u intellektining umumiy xolatida ham o`z aksini topadi.

Psixolog A. G. Luriya (1962y) takidlasicha, nutqi to`liq rivojlanmagan bolalarning impressiv nutqini tekshirishda uning ekspressiv tomoni bilan o`zaro bog`liqligini e`tiborga olish kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqi to`liq rivojlanmaganlik muammosiga doir qisqacha adabiyotlar sharxi ana shu bolalar nutqida tovushlarni to`g`ri tallaffuz etish, lug`atini boyitish, nutqning grammatik tomoni rivojlantirish masalalarini, ularni kelib chiqish sabablarini yoritdi. Lekin nutqi to`liq rivojlanmagan o`zbek bolalarini savodag tayyorlash va o`rfgatish bo`yicha maxsus adabiyotlar yo`q.

Biz anashu toyifaga mansub bolalarda maktabga borgunlariga qadar ushbu nuqsonlarnig bartaraft etilishi mazkur toyifadagi bolalarda o`zlashtirmaslikning oldini olishga va ularni bartaraft etishga tasir o`tkazish mumkin va zarur deb xisoblaymiz.

1.2 Nutqi to`liq rivojlanmagan bolalrni nutqini tekshirishni va taxlil qilish metodikasi.

Nutq inson ruxiy faoliyatining kelib chiqishi jixatidan ijtimoiy tuzilishi jixatdan tuzimli bo`lgan murakkab shakildir. Bola nutqini anatomic o`rganishi uning bola ruxining rivojlanishida katta axamiyatga ega ekanligini ko`rsatadi. Bir tamondan nutq turli darajada rivojlanishining turli bosqichlarida bola faoliyatining boshqa ruxiy jarayonlari bilan bir qatordagi barcha turlarini ishlatishiga qaratilgan bo`ladi. Boshqa taqmondan, nutqning paydop bo`lishi va takomillashishi barcha ruxiy jarayoni qayta quradi va natijada nutq barcha ruxiy jarayonlarga nisbatan tashkiliy va bog`lovchi vazifani bajaradi. Shuning uchun xali bolalar nutqini o`rganishga katta axamyat berilishi tabiydir.

Nutq nuqsonini to`g`ri tushunish va unga samarali tasir qilishi, uni bartaraf etishning yanada to`g`ri va qisqa yo`llarini tanlash uchun nutq buzulishlari xususiyatini, ularning chuqurligi va darajasini aniqlashni bilishi, bu kamchiliklar nutq tizimini qanday belgilariga tasir etishini o`rganishni bilish kerak. Tekshirish

jarayonada bolaning eshitish qobiliyati, tafakkuri va nutqinig rivojlanish darajasi tekshiriladi.

Ma'lumki bolalarda (ayniqsa animal bolalarda) nutq kamchiliklari uchraydi. Nuqsonlarning tashqi uxshashligiga qaramay, anomalyarlani yurli shakillarida ular mexanizmi turlicha bo'ladi, bazi xollarda nutq buzilishi birlamchi, bazan 2-lamchi bo'ladi. Nutq buzilishiga asos bo'lgan mexanizmlarni aniqlash, nutq buzilashlarini tasniflash, ularni ifodalanish darajasini belgilash nutqni o'rganishi, tadqiq qilishning asosiy vazivasidir. Nutqni tadqiq qilishga nazariy yondoshish buyuk psixolog va logopedlarning (L.S.Svetkova 1988 v.h) ishlarida yoritilgan.

Maxsus adabiyotlarda bolalarning og'zaki nutqini o'rganishning sistemalari va tasniflari keltirilgan. Bu adabiyotlarning umumiy manosi shundaki, turli bosqichdagi tafsilotlarni o'rganishi asosida olingan malumotlarga tayanib, bola nutqini fonetik-fonematik leksik-grommatik rivajlanishi taxlil qilinadi, shuningdek bolalarni ravon nutqdan foydalana olish imkoniyati haqida fikir yuritiladi. Shu maqsadda bola bilan suxbat o'tkaziladi va turli nutq topshiriqlari beriladi (N.M. Sereprova, N. S. Jukova, E. M. Mastyukova, 1973-y, L.F. Spirova, A.V. Yastrebova 1960-y)

So'ngi yillarda faqatgina bolalarni nutqiy vositalarini shakillanishini emas balki, nutq vazifalarini yetukligini hisobga oluvchi yo'nalish ayniqsa, logopediyada taqrqqiy qilmoqda (R.E. Levina 1961-y, G. V. Cherkina 1985-y L. F. Spirova 1985-y) .

Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar nutqini o'rganish uslubiyati manashu yo'nalish asosida nevropsihologiyada nutqni o'rganish bo'yicha zamonaviy ma'lumotlarni hisobga olgan holda tuzilgan (L.S. Svetkova , Ahutina, N.M Tillayeva 1981-y, Svetkova 1988-y).

Bu metodika nutq buzilishini sifat va miqdoriy tomondan tahlil qilishga mo'jallangan. bu esa nutq buzilishini harakterini va ifodalanish darajasiga ko'ra tasniflashga imkon beradi. Bundan tashqari, uni nutqiy rivojlantirishning sempotolig va qay darajada o'ylantirilganligini baholash uchun qo'llash mumkin.

Bolalaik davrida nutqi aloqa kishi uchun og`zaki nutq katta ahamiyatga ega bo`ladi.

Shunday qilib metodikada ko`rsatilgan topshiriqlar nutq buzilishini markaziy halqasini ajratishga imkon beradi, chunki ular turli bosqichdagi (tovush , so`z , gap, matn) nuqsonlarini ko`zdan kechiradi, har bir nutqiy nuqson turli darajada namoyon bo`ladi. Nutqi to`liq rivojlanmaganlikning tasnifiga ko`ra 3 darajali bo`ladi. R.E.levina, K.A.Kashe, G. V.Chirina, A.K. Markova, O.M. Usanova va boshqalarning tadqiqotlari shuni ko`rsatadiki, har bir darajada bola nutq nuqsoni sifat spetifikasi bo`ladi. Shunga mofiq etilayotgan topshiriqlarning xar biri oddiydan murakabga qarab tuzilgan bo`ladi. Shunga muofiq metodikada tavsiya etilayotgan topshiriqlarni oddiydan murakkabga qarab tuzilgan.

Masalan: pridmetlarning nomlanish topshirig`ida ko`p qo`llaniladigan murakabiroq tovush tarkibi jixatdan soda so`zlar, xamda bola nutqida kam qo`llanadigan murakabiroq tovush tarkibli so`zlar qo`llaniladi. Nutq nuqsoni ifodalanganlik darajasiga qarabbola nutqidagi qiyinchiliklar yo artikulyatsiya jixatdan soda yoki o`rta murakkab so`zlarda (svetofor, militsiyoner, tayyora) namoyon bo`ladi. Topshiriqlarda bir tamondan nutqni fiziologik ospeklari, 2 tamonda semantik aspektlari (ma`nosi yaqin bo`lgan so`zlar)ga nispatan talablar aks ettirilgan.

Nutqni tekshirishda rivojlanishning quydagi tamoni aniqlandi:

- 1) Bog`lanishli mustaqil nutq.
- 2) Lo`g`t boyligi.
- 3) Nutqning grammatik to`g`riligi.
- 4) Tovushlar talaffuzi, bo`g`in tuzilishi va fonematik idrok qilish.

Bundan tashqari, artikulyatsion apparat xarakatchanligining saqlanganligi nuqtdan tashqari umumiy va mayda qo`l muskullarining tekshirishi amalga oshiradi. Nutqi tekshirish bolaning umumiy bo`lish doirasini aniqlshni, bog`lanishli nutqqa ega ekanligini maqsad qilib qo`ygan suxbatdan boshlanadi. Suxbat mavzusi oddiy bolaga yaxshi tanish bo`lishi kerak sababi, bolalarni tushinish va to`g`ri javob berishi kerak.

Masalan:

- Isming nima?
- Necha yoshdasan?
- Onangni ismi nima?
- Opang (akang) bormi?
- Uning ismi nima?

Agarda bola xar bir savolga bir soʻz bilan javob bersa undan bir qancha javoblar olib boladan yanada kengroq javobni talab qiladigan qoʻshimcha savollarni berish kerak. Shunday suxbat bolani nutqi, eshitish qobiliyati tafakurini tekshirishga yaʼniy tez va toʻgʻri javob brishi ota onasidan yordam soʻrashi uni qanday shakilda namoyon boʻlishi yuzaga kelgan qiyinchiliklarga qanday roya qilishini baxolashga imkon beradi. Suxbatni oʻtkazish natijasida bolani, nutq rivojlanish darajasi haqidagi 1-taʼsurot yuzaga keladi. Bolalarnin nutqiy va nutqiy boʻlmagan motorikasning, ular xulqining oʻziga xos tamonlarining ichki va tashqi nutqini oʻrganishga oid materiyallar, shuningdek nutqi umumiy rivojlanmagan bolalarni tekshirishga doir vazifalar, oʻzimiz olib borgan nutqi umumiy rivojlanmagan maʼlumotlar va boshqa muamolarning (G.B Filecheva1985y, N.A Cheveleva, R.E. Levina 1951y., O.N usanova 1970, G.V.Cherkina, A.V Yastrebova, L.R Muminova, M.YU. Ayupova) tekshirishi natijalarini xisobga olishi natijalarini xisobga olishi natijasida ishlab chiqildi. Bu talablarni bajarilishini aniq topshiriqlrni tuzishda koʻraylik.

2.1 Artikulyatsion aparadni tekshirish metodikasi.

Artikulyatsion aparadni tekshirish metodi asosan tovushlar talafuzidagi nuqsonlarning sababi boʻlgan artikulyasion aʼzolar tuzilishida ifodalangan kamchiliklarni aniqlashdan iborat. Artikuyasion aparatning tuzilishini tekshirishda quyidagilarga:

Lab: (qalin, yuqa labdagi yoriqlik)ga;

Til: (makrologiya, tilning ingichkaligi, til tagidagi yugangani kalta boʻlishi)ga;

Jagʻ: (progeniya, prognatiya)ga;

Tish: (yoʻq boʻlishi, orasi ochiq boʻlishi yon ochiq)ga ;

Qattiq tanglay : (baland, yassi, tor).

Artikulyasion aparatning harakatchanligi tekshirilganda .

Lab –kulgi holatga keltirish, cho`chchaytirish;

Til- pastki, yuqori lablarni yalash, tilni navbat bilan og`ziga kirg`azib chiqarish, tilga tor va keng holatga ushlab turish;

Jag`- og`izni katta ochish, pastki jag`ni o`ngga, chpga harakatlantirish.

Artikulyasion aparat harakatchanligini baholash meyorlari:

- Harakatlarni saqlanganligi;
- Harakatlarni bajarishda kamchiliklarni borligi;
- Harakatlarni bajara olmasligi;

Nutqdan tashqari bo`lgan motorika harakatni tekshirish.

Logoped bolalarga so`z qoidalarini va taqlidiy quyidagi vazifalarni bajarishni taklif qiladi:

- 2oyoqga yugurish, sakrash;
- yugurish, sakrashga ogohlantirish bilan to`xtash;
- bir oyoqda, so`ng 2-oyoqda sanoq asosida turish;
- cho`killab o`tirgan holda polda koptokni dumalash;
- lentani “tugun” keyin “bantik” qilib bog`lash.

Bola motorikasini tekshirish natijasida logoped quyidagi ma`lumoylarga ega bo`ladi; oyoq va qo`llarni muvofiqligi, tana muvozanatini sezish, mayda qo`l paylarini rivojlanganligi va harakatchanligi haqida ma`lumotga ega bo`ladi.

Tovushlar talaffuzini tekshirish metodikasi.

Tovushlar talaffuzining holati logopedik amaliyotga umumiy qabul qilingan quyidagi tartib asosida tekshiriladi. Bolaga buyumlarning rasmi ko`rsatiladi bunda rasmdagi buyumlarni ifodalovchi so`zlar ichida tekshirilayotgan tovush so`zning turli o`rinda (so`z boshida, o`rtasi, oxirida) kelishi kerak.

Sirg`aluvchilar (s,z,ts)

Shippilovchilar (Sh,J,Ch)

Sensorlar (R.L.Ng)

Til orqa, chuqur til orq tovushlar (k,g,h,x,q,g`)

Jaranglilar (b,v,d,m)

Tekshirilayotgan tovushlar bor bo'lgan so'zlarni ifodolovchi maxsus nomlangan maxsus tanlangan buyumlarga oid rasimlar tekshirish uchun materiallar bo'lib xizmat qiladi. Tovushlar talafuzidagi nuqsonlar xususiyatiga qarab tovushlarning yo'qligi; tovushlarni almashtirish; tovushlarni nutqda mustaxkam emasligi tovushlarni buzib ta'lafuz etishi. Tanlangan rasimlar maktabgacha yoshdagi (6 yoshli) bolalar xayotiga, dunyoqarashiga mos bo'lishi kerak.

2.2 Lug'at boyligini tekshirish metodikasi.

Bola nutqini ontoginezda o'rganish shuni ko'rsatadiki, nutqni rivojlantirish darajasi, leksik vosetalarni shakllanganligi, lo'g'atini xajmi bilan belgilanadi. Lug'atni o'rganish juda muxim, chunki uni orqasida bolani obektiv xodisalarini so'z bilan qanday ifodalashi, shu so'z bilan ifodalangan ma'no qay darajada umumlashtirilgani turadi. Bolani atrof muxitini so'z bilan qanday ifoda etish ma'nolarini shakllanishi darajasini va ularni bola nutqida differensionlashgai darajasi haqida xulosa chiqarishga imkon beradi. Bu esa lug'atni xajmi va sifatini belgilaydi. Topshiriqlar predmet yoki obrazni so'z bilan ifodalash predmetdagi kerakli belgilarni ajratishni, so'zlarni umumlashtirib aloqalar tizmini qo'shilishini baxolashgq imkon beradi. Bu topshiriqqa bir qancha so'zlar kiritilgan. Ular quydagi parametrlar bo'yicha kiritilgan: so'zlarni bolalar nutqida ko'p uchrashi;

- So'z uzunligini bo'g'inlar soni jixatidan o'zgarishi:

-Bu so'zlarning birinchi guruxiga bolani amaliy faoliti va oila o'yin vaziyatlari bilan bog'iq maishiy so'zlar: oyi, dada, uy, mashina, kotok, qo'g'irchoq.

2-guruh. Bolalar koproq tasviyriy tasavur qilishdagi maishiy so'zlardir, bu so'zlar og'zaki nutqda kamroq ishlatiladi: likopcha, sharf, avtobus, lolaqizg'aldoq.

3-guruxga olti yoshli bolalar nutqida juda kam uchraydigan so'zlar: Xayklal, xalat, butilka, divan kabi so'zlar kiritilgan.

Nutqning grammatik ko'rinishini tekshirish me'todikasi.

Barcha so'zlarda ot va fe'llar eng ko'p informative qiymatga ega. Aynan shu so'zlar gapni simantik asosini xosil qiladi. Ularga muxim ma'no yuklatiladi. Bu

soʻzlar nutq ontogenezida ormal va anomal rivojlanayotgan bollarda birinchi boʻlib paydo boʻladi. Ularni oʻz vaqtida bilmaslik toʻla qonli nutq muomilasini shakilanishiga toʻsqinlik qiladi. Shuning uchun nutq oʻrganishi meʼtodikasiga predmet va harakatlarni nomlash boʻyicha topshiriqlar kiritiladi. Nutqiy aʼloqani amalga oshirish uchun fikrni bayon etish koʻnikmasi mavjud boʻlishi kerak. Bu jarayon nutqni asosiy birligi xisoblanadi. Jumlar yordamida amalga oshiriladi. Jumla tarkibiga kiruvchi soʻzlar guruxi maʼno birligini tashkil qiladi. Nutqni rivojlanishda buzilishi bolalarda jumla tuzishdagi va jumlaning nutqiy aloqa qilish jarayonida qoʻllashdagi qiyinchiliklarni aniq koʻrinadi. Jumla tuzilishi avvalgilariga qaraganda murakkabdir chunki uni bajarish uchun nutq faoliyati yetarli darajada rivojlanmagan boʻlishi va bola nutq vositalaridan erkin foydalanishi kerak.

Topshiriq quyidagilarni aniqlashga qaratilgan:

- Soʻzlarni jumlalarga yigʻish imkoniyati va usullari:
- Soʻzni yasash va (jumla) shakil yasash xususiyati
- Soʻz birikmalarini xususiyati.

Ishni bu bosqichida bolaga murakkab boʻlmagan syujetli rasmlar taklif etadi:

1) Soʻzlarni toʻgʻri tartibda berilgan sodda gap (egadan vositasiz toʻlduruvchidan kesim).

Anvar rasm chizdi.

2) Koʻmakchilar yordamida gap tuzish:

Alisher bilan Umida maktabga ketyapti.

3) Qoʻshimcha gaplar:

Topshiriqdagi soʻzlar bolalarning amaliy faoliyati bilan mukammal bogʻliq soʻzlarni qoʻllash koʻzda tutiladi.

Topshiriqni bajarish tartibi quyidagicha: “bolaga nimani rasmi chizilga, rasmga qarab gap tuz” topshirigʻi beriladi.

Jumlalar roʻyxati:

- Qizcha idish yuvibdi.
- Qizcha idish tozalayabdi.
- Mushuk suvda oʻtiribdi.

- Mushuk stoltagida o`tiribdi.
- Qiz oyisi yoniga yugirayabdi.
- Bolalar koptok o`ynayabdi.
- Bola uyga kiriyabdi.
- Bola uydan chiqayabdi

Tekshirish vaqtida tekshiruvchi bolalarni faqat kuzatib qolmay, balkiy zarur bo`lsa, ularga yordam berishi kerak.

Fonematik idrokni tekshirish metodikasi.

Fonematik eshitishni o`rganish murakkab signal belgilari bo`yicha nutq tovushlarini ajratish imkoniyatini aniqlashga qaratilgan. Nutqni to`liq tushinish fonematik eshitishni shakillanganligi bilan taminlanadi. Nutqning bu tamoni rivojini muximligini xisobga olib, metodiikaga shunga mos topshiriqlar kiritilgan. Bu topshiriqlar bolalar nutqini o`rganishda dolzarb xisoblanadi, chunki fonematik eshitiruvni shakillanishi uchun tovush taxlili operatsiyasi odatda faat og`zaki nutqida nuqsoni bor bolalarda emas, balikiy narmal boalarda ham buzilgan bo`ladi.

Topshiriq bir qancha tajriybalarni xisobga olgan holda dasturlashtirildi. Ular qarama-qarshilik darajasiga qarab murakablashadi. Bu narsa bolaga aloxida tovush, bo`g`in so`zlarni tanish uchun muayan qatorda beriladi.

1. Yuqori qarama-qarshilik bilan (sh tovushiga qo`l ko`tarish) b, k, sh, t, r, sh, g, sh, d,

ba, ka, sha, ta, (song yopiq bo`g`inda)

2. O`rtacha qarshilik bilan sh (uchun) f, sh, x, f, sh, k
Pa, sha, qa, fa.

3. Minimal qarshlik
S, sh, j, sh, z, j, x, sh.
Sa, sha, ja, sha, za.

Tovush taxlil tarkib qilishni tekshirish metodikasi. Bola 6 yoshga kirganda lug`at boyligi, kundalik hayoti va qiziqishlari doirasiga kiradigan har qanday holat, narsa hodisa va voqealarni boshqa kishilarga oson tushintirib bera

oladilar, 6 yoshli bolaning lug`ati ot, fel, olmosh, sifat, son, bog`lovchilardan iborat bo`ladi.

Ammo so`zning tovush tarkibini taxlil va tarkib qilishi ko`nikmasi o`zi mustaqil shakillanmaydi. Tovushni taxlil va tarkib qilishi malakalarini o`rganishi uchun biz bolalarga tanish bo`lgan so`zlardan, rasmlardan foydalandik. O`rganish ishlari yakkama- yakkam tarizda o`tkazildi. Bunda bolalarning quyidagi qobiliyatlari tekshirildi.

- So`z boshidagi tovushni aniqlash;
- So`zdagi kerakli tovushni aniqlash;
- Tovushni so`zdagi o`rnini aniqlash (so`zda 3- bo`lib qanday tovush kelyapti);
- Tovushni so`zdagi ketma-ketligini aniqlash;
- So`zdagi tovushlar sonini aniqlash;
- Berilgan tovushga so`z toppish;
- Berilgan tovushga rasm toppish;
- So`zlarni bo`g`inlarga bo`lish.

II bob.nutqi to`liq rivojlanmagan bolalarni savodga o`rganishini Eksperemental o`rganish.

Yosh avlodni tarbiyalash va o`qitish xalq ta`lim tizimining boshlang`ich bo`g`ini bo`lgan maktabgacha tarbiya muassasalaridan boshlanadi.

Maktabgacha tarbiya yoshdagi nutqida kamchiligi bor bolalarni tarbiyalash va o`qitishning asosiy vazifalaridan biri, bolalar nutqidagi kamchilijlarni bartaraf etish bilan bir qatorda.ularni savod o`rganishga tayyorlash va saqvod o`rgatishidir.

Maktabgacha tarbiya yoshdagi nutqida kamchiliklari bor bolalarni tarbiyalash va o`qitishning asosiy vazifalaridan biri, bolalar nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etishi bilan bir qatorda ularni savod o`rgatishga tayyorlashva savod o`rgatishdir.

Tayyorlov guruhlarida bollarning asaosan nutqini o`stirishga e`tabor beriladi. Bunda tpovush va so`zlarni to`g`ri talafuziga, jumla tuzishiga ravon bog`lanishli nutqiga asosiyu e`tabor beriladi.

Bolaning muvofiqiyatli savod o`rganishida og`zaki, nutqi qnday muhim ahamiyatga ega bo`lsa, nutqdan tashqari bo`lgan mayda qo`l paylarining tuzilishi va harakatchanligi rivojlanganligi ham huddi shunday ahamiyatga ega. Sababi bola savod o`rganish jarayonida eshitgan tovushlarini, so`zlarini, yozuvda aks etirish zarur, yuqoridagi fikrdan kelib chiqib biz eksperimental tekshirish ishlarmizni o`tkazish davomida bolalarning artikulyatsion apparatini, umumiy va mayda qo`l paylarini harakatchanligini, nutqning talafuz tamoni, lo`g`at boyligini, ichki nutqni, nutqning grammatik qurilishini, fonetik idrokni, tovushlar taxlili – tarkibini tekshirishga asosiy etiborni qaratdik.

Bolalar nutqining talafuz tamoni, fonetik idroki va tovush taxlil-tarkib tasnif qilish malakalarini tekshirishda L.E. Livina G.V. Chirkina, A.V. Yasrebova, L.R. Mo`minovalarning (1992) nutqini tekshirish tajribasidan foydalandik. Bolalar nutqining lo`g`at boyligi, grammatik qurilishi, ichki nutqini tekshirishda G.B. Flicheva, N.A. Chebelova, G.A. Kashe, N.I. Serebrova (1969y). A.V. Yastirebova (1960y), A.R. Luriya (1975y) O.N Usanova va L.R Mo`minova, M. Yu. Ayupovlarning tekshirish metodikalariga asoslandik va o`zbek tili xususiyatlari xisobga olinib, moslastirildi. Eksperimental tekshiruv ishlarimiz 2004-05 o`quv yilining sentabr – dekabr oylarida Jizzax shaxridagi “Orzu” va “G`uncha” bolalar bog`chasining tayorlov guruh bolalarining nutqining barcha tarkibiy qismlari va fonematik idrokini maxsus ishlab chiqilgan metodik asosida tekshirildi.

2.1 Artikulyatsion, motorika va tovushlar talafuzini tekshirish natijalari taxlili.

Artikulyatsion apparat tuzilishini tekshirishda biz lab, til, tangly, jag`ning anatomik tuzilishiga diqqatni jalb etdik. Tekshirish jarayonida 1 jadvalda ko`rsatilgan natijalarni oldik, bolalart artikulyatsion aparati tizmini tekshirganimizda experimental ishtirok etgan 20ta (100%) boladan 7 ta (35%) bolanning artikulyatsion aparat tuzilishida xech qanday anomaniyalar kuzatmadik. Artikulyatsion aparat tuzilishida anomaniyasi bor bolalar 13 ta (65%) bolani tashkil etdi. Ulardan 2tasi (10%) boladan lablari juda ingichkaligi, 2 (10%) ta bolada tilning qalinligi, *3

(15%) bolada til yuganchasini kaltaligi, 2 (10%) bolada uzun tor tanglayni, 4ta (20%) bolada prognatiya kuzatilgan.

Artikuliatsion apparat xarakatchanligini tekshirishda biz lab, til, jag`ni harakatga keltirish uchun foydalaniladigan artikuliatsion gimnastik mashqalardan foydalandik va quydagi keltirilgan 2-jadvalda ularning natijalarini aks ettirdik.

Jadval №2 Artikuliatsion apparat harakatchanligini tekshirish natijalari.

№	Topshiriqlar	Bolalar soni	Bajara olgan bolalar soni	Bajara olmagan bolalar soni
1	Lablarni cho`chaytirish	20ta 100%	20ta 100%	
2	Lablarni kulgu holatiga keltirish		12ta 60%	8ta 40%
3	Tilni tepaga ko`tarish		10ta 50%	10ta 50%
4	Tilni pastga tushirish		20ta 100%	
5	Lablarni yalash		8ta 40%	12ta 60%
6	Pastki jag`ni o`nga chapga harakatlantirish		9ta 45%	11ta 55%

Artikuliatsion apparat xarakatchanligi tekshirishda 2-jadvalda ko`rsatilganidek 20 ta (6yoshli) bolalar ishtirok etadilar.

Lab xarakati sust bolalar 8ta (40%); a) til xarakati: tepaga kpo`tarilishi 10ta (50%)ni; b) til bilan lablarni yalash 12ta (60%) bolalarda; jag` xarakati sust bolalarda 11ta (55%)ni tashkil qilishini kuzatdik.

2.2 Maktabgacha yoshdagi bolalarning fonetik idrokini o`rganish natijalari.

Ko`pgina olimlar, pisixologlar V.N Ananov (1955y) V.I. Beltyukov (1977y) Gvozdev A. N lar nutqini idrok qilishni tekshirish jarayonida bolalarda nutq

normal rivojlangan xolda birinchi fonetik idrok juda erta yuzaga kelishini isbotlab berdilar.

Mualliflarning fikricha, bolalarning eshitish qobiliyatining funksiyasi erta rivojlanganligi sababli, u nutq shakillanishining ilk davridayoq akustikjixatdan qarama-qarshi bo`lgan tovushlarni ajrata biladi. Rivojlangan fonetik idrok bolalarga faqat to`liq nutqni egallashga yordamberibgina qolmay, ona tilida bemalol muomila qila olish malakalariniham shakillantiradi.

Fonetik idrokning shakillanishi fonetik idrokning rivojlantirishi savod o`rganishningtayyorlov davrining asosiy vazifasiham sanaladi. Fonetik idrok bolalarning nutq nuqsonlarini bartaraf etish bilan bir vaqtda rivojlantiriladi. Bolalarni nutq tovushini ajratishiga o`rgatish savod o`rgatish davridagi o`qish jarayonidagi tovushlarni bo`g`inlarga, bo`ginlarni so`zlarga, so`zlarni esa gapga birlashtirish gaplardan esa xikoyalr tuzish vazifasi bilan birgalikda olib boriladi.

Ma`lumki savod o`rganishning eng samamarali usullaridan biri – tovush taxlil – tarkib usulidir. Yuqoridagi usul bo`yicha savod oqrgatish uchun fonematik idrokni rivopjlantirish muxumdir. Shularni xisobga olib, tayyorlov guruhi fonematik idrok xususiyatlarini nutq tovushlarini ajrata olish qobiliyatlarini tekshirdik. Fonematik idrokni tekshirish namunalari maktabgacha yoshdagi bolalarning ko`pchiligida tovushlarni eshitib idrok etish rivojlantirilganini ko`rsatdik. Tekshirishda 20 ta bola ishtirok etdi. Ulardan 17ta (85%) bolada tovush talafuzi kamchiligi kuzatilgan bo`lsa, fonematik idrokda kamchiligi bor bolalar ham 17ta (85%)ni tashkil etishi a`lum bo`ldi. Fonematik idrok rivojlanmaganligi faqatgina tovush talafuzi kamchiligiga ega bolalarda emas, balkiy tovush talafuzi normada bo`lgan bolalardaham uchrashi mumkunligini guvohi bo`ldik.

Jadval. Fonemati idrokni tekshirish natijalari.

Gurux	Bolalr soni	Tovush talafuzi va fonematik idroki kam bo`lgan bolalar soni (%)	Tovush talaf. Normada fonetik idrok kam bolalar soni (%)	Fonetik idrok normada bolalar soni(%)	Tovush talafuzida kamchilik bo`lgan idrok no`rmada bolalar soni. (%)
Tayyorlov guruhi	20ta (100%)	17ta (100%)	2ta (10%)	3ta (15%)	2ta (10%)

Tekshirish ishlarida tovushlar talafuzi va fonematik idrokda kamchiligi bo`lgan bolalar 17ta (85%) tovushlar talafuzi no`rmada fonematik idroki rivojlanmagan bolalar 2ta (10%)ni, tovush talafuzida kamchiligi bo`lgan fonematik idroki no`rmada bo`lgan bolalar 2ta (10%)ni, fonematik idroki no`rmada bo`lgan bolalr soni 3ta (15%)ni tashkil qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolarning lo`g`at boyligini tekshirish natijalari.

Suhbat vaqtida bolar nutqini diqqat bilan tinglash, bola lo`g`at boyligi haqida muayyan tasavvur beradi. Lekin nutqi to`liq rivojlanmagan 6 yoshli bolalarning nutq nuqsonlarini mufassal belgilash uchun bolaning maqsadga qaratilgan lo`g`at boyligi darajasini aniqlab olish zarur deb topdik.

Bolani savod o`rganishga tayyorlash va savod o`rganish jarayonida u juda muxum ahamiyatga egadir. Tekshirishdap: narsalarni nomlash, narsalarni tasvirlanishiga ko`ra nomlash, narsalarni umumlashtirish kabi topshiriqlardan foydalandik.

Teksirilgan 20ya nutqi to`liq rivojlanmagan bolalarning diyarli barchasi 18ta (90%) narsalarni umulashtira olmadilar. Narsalarni nomlash, tasvirlashga ko`ra nomlashni 12ta (60%)bola bajara olmadilar. Bolalarning nutqi ot, fe`l, so`z turkimlariga kiruvchi so`zlardan iboratligi aniqlandi. Maktabgacha yoshdagi (6 yoshli) bolalarning nutqini, lug`t boyligini tekshirishning miqdoriy taxlilini

quydagi 1 diagrammada keltirdi. 1-diagramma. Lug`at boyligini tekshirishni miqdoriy natijalari.



I – lug`at boyligini mos shakillanishi;

II – o`rganilgan tajriyali logoped savollari yordamida bergan javoblari

III – juda ko`p va tez tez yo`l qo`ygan hatolar.

Tekshirishda 20 ta bola ishtirok etdi. Ulardan nutqi to`liq rivojlanmaganlikni turli darajalari aniqlandi. Lug`at boyligini holatini tekshirish natijalari aniqlangan diyagramma asosida: lug`at boyligi no`rmada, yoshga mos tarzda rivojlangan bolalar kuzatilmadi.

Narsalarni umumlashtirish nomlash vazifasi 8ta (40%) bola logoped savollari yordamida bajaradilar. 12ta (60%) bola berilgan topshiriqlarni bajarishida ko`p hatolarga yo`l qo`ydilar. Ko`rsatilgan 30ta (100%) rasmdan 8ta (2.6) nomlay oldilar xalos.


Nutqning grammatik qurilishini tekshirish natijalari.

Nutqi to`liq rivojlanmagan bolalar nutqini, aloqa qilish hususiyatlarini o`rganishdan avval ular nutqining grammatik tamoni o`rganish muximdir. Demak nutqi to`liq rivojlanmagan bolalar nutqini tekshirishi ishining asosiy maqsadlaridan biri. Nutqning grammatik qurilishini tekshirishdir. Nutqi to`liq rivojlanmagan bolalarda jumla tuzish va jumlaning nutqiy aloqa qilish jarayonidagi

qiyinchiliklar aniq ko`rinadi. Bu bola nuiqidagi agrammatizmlar nutqning grammatik tizmini buzilganligidan darak beradi.

Quyda biz maktabgacha yoshdagi nutqi to`liq rivojlanmagan bolalar nutqining grammatik tamondan tekshirish natijalarini diagrammada keltirdik.

Diyagramma2



I – nutqning grammatik tamoni norma rivojlangan bolalar miqdori;

II – grammatik tamondan kamchiliklar kuzatilgan bolalar soni.

III. nutqning grammatik tamoni rivojlanmagan bolalar soni tekshirish jarayonida 20 ta bola ishtirok etdi. Bu jarayonda biz bolarga bir qancha syujeti murakkab bo`lmagan rasimlarni berdik. Bolalar shu rasimlar asosida gap tuzdilar. Bunda biz jumalarda so`zlarning soni, qo`shimchalarni qo`llanishi va ko`proq qaysi so`z turkimlaridan foydalanib gap tuzishlariga asosiy e`tiborni qaratdim. Tekshirish so`ngida biz bolalrni barchasi nutqida ot, fe`l, so`z turkimidan foydalanishlarining guvohi bo`ldik. Keltirilgan 2 – diagrammadan ko`rinib turibdiki nutqning grammatik tamoni norma rivojlangan bolalar uchramadi. Gap tuzishda yordamchi savollar qo`pol bo`lmagan hatolar bilan vazifani bajaragan bolalar. 9ta (45%)ni, vazifani bajarishda qo`pol hatolar va bajara olmaganlar 11ta (55%)ni tashkil qildi.

Maktabgach ayoshdagi nutqi to`liq rivojlanmagan bolalarni savodga o`rgatishga oid metodik tafsiyalar.

Bolalarning maktab ta`limiga tayyorlash ularning indidval xususiyatlariga, aqliy va jismoniy tamondan nechog`lik rivojlangaligiga bog`liqdir.

Ham savod o`rgatish ta`lim tarbiyaning muhim vositasi bo`lib bu davirda o`quvchilarga to`gri o`qish, chiroyli hamda o`qiganlarini so`zlab berish o`rgatiladi. Nutqni gaplarga, gapni so`zlarga, so`zni bo`ginlarga ajratishi, tovushlarbi eshitib va talafuz qilib bir-biridan farqlash, sozda tovushlarning ketma ketligiga etibor berishniham bilishlari taminlanadi. (K.Abdullayeva, K. Nazarov 1966y)

Ona tilini o`zlashtirish, bolalarni oilada va bolalar bog`chasida egallagan nutqiy ko`nikmalari(dialogik va monalogik, bog`langan nutqni o`stirish), takomillashtirishni hamda bolar uchun yangi nutqiy faoliyat yozma nutqbi shakilantirish vazifalarini o`z ichiga oladi. Bu vazifalarni yechishi bolalardan yetarli lo`g`t boyilgiga ega bo`lishni, nutqni grammatik qatorini rivojlangan bo`lishini talab qiladi.

Ularni amalga oshirishda bolani nutqiy voqelikni anglashi muhim sharoit hisoblanadi.

Savod o`rganishni boshlayotgan fonetik-fonematik nutq nuqsoniga ega bolalr so`zlarida alohida to`liq eshitmaydilar, tovush analizining elementar formalarini ham amalaga oshirishda qiynaladilar.

Bu bolalrda fonematik eshitini shakillanmaganligi, ularda ona tilini o`zlashtirish uchun zarur tajrib ava ammaliy nutq umumlashmalarni yetishmasligi bilan tushintiriladi.

Shu sababli bu bolalarni o`qish va yozishiga o`rgatishga tayyorlash davrida bola nutqidagi nuqsonlarni tuzatish bilan birga olib boriladi.

Tayyorlov davrining asosiy vazifasi bolalr diqqatini so`zga qaratish, nutqni ular ongining opredmetiga aylantirishdan ibborat. Bu davirda asosiy e`tabor fonematik idrokni, tovush analizi vasintezini, nutqni ravonligi, va ifodaliligini. Shakillantirishga qaratilgan. Shu maqsatda tovushlar artikulyatsiyasi aniqlashtiriladi, artikulyatsiya yoki akustik hususiyati bilan bir biriga yaqin

tovushlarni farqlashga bola diqqati qaratiladi. Bolalar soʻzni tovush tuzilishida orentasiya qilishga oʻrgabnadilzr. Har bir soʻz maʼlum miqdordagi qatʼiy ketma – ketligdagi tovushlardan tuzilganligi tovushlardan tuzilganligini anglab yetadilar. Tovush analizi va sintezini shakillantirishga qaratilgan ishlar natijasida bolalar hissiy boyidi, fikirlash faoliyati faolashadi, ona tiliga qiziqish yuzaga keladi.

Savod oʻrgatishga tayyorlashning muhim boʻlagi bola gap va soʻz bola diqqati ongini predmetiga sarflanganda bolalar nutqini oʻstrish hisoblandi. Lugʻt boyligi boyitiladi, nutqning ravonligi va ifodaliligi, soʻzlarni maqsadga muofiq qoʻllash koʻnikmalari shakillantriladi.

Tovush taxlili va sentezini shakillantirish.

Fonematik eshitishni yetarli rivojlanmaganligi, eslab qolishni sustligi asosiy fkirlash jarayonlarini shakillanmaganligi. Nutqi toʻliq rivojlanmagan bolalarda ona tilidagi tovushlar bilan tanishish va ularnini belgilanishini normal bolalarga nisbatan kech oʻzlashtirishga olib keladi. Shu sababli bu bolalar uchun ayniqsa savodga oʻrgatining tayyorlov davri katta ahamiyatga ega. Bu davirda bolalarni imkon qadar ona tili doirasidagi hissiy tajriyasini soʻzni tinglay olish, undan nutq tovushlarini ajratsih va taniy olishlarini oʻstirish va boyitish kerak.

Bolalarni faol faoliyatga alohida tovushlar akustik va nutq-harakat hususiyatlarini ongliy oʻzlashtirish, ularni tanish imkonini beruvchi belgilarni ajratish va “Nutq tovushlari” unli va undosh tushinchalari shakillantiradi.

Soʻz tarkibidagi nuntq tovushlarning shartli belgilash ularni harf bilan ifoda etishning asosiy shartidir. Nutqiy va umumiy rivojlanishda tovush analizi va sintezi shakillanishida bolalrni soʻz ichidan tovushlarni va ularni shartli belgilarni ajratib ogʻzaki aytishlari muhim roʻl oʻynaydi.

“Nutq tovushlari” mavzusi boʻyicha bolalarni savodga oʻrgatishga tayyorlash ikki bosqichda olib boriladi.

Birinchi bosqichda

Asosan ishlar soʻzni tinglay olish, ulardan alohida tovushlarni tanish, aniqlash, ajratish, koʻnikmalarini rivojlantirishga barcha tovushlarni aniq toʻgʻri

talafuzini ishlab chiqishiga qaratiladi. Lekin yuqoridagi ko`nikmalariham o`qish va yozishni o`zlashtirish uchun zarur tovush taxlilini taminlaydi.

Bolalarni savodaga o`rgatish tayyorlov bosqichida asosiy e`tibor o`zda tovushni ajratishni shakillantirishga qaratilgan.

So`z ichida tovushni ajratishda bolalar ularni eshitib, ta`lafuz xususiyatlari bilan (ovozni istiroki, lablar, til, tishlarning holati) tanishadi. Shu maqsadda bolalar, diqqatini bu tovushni tarbiyachi va tengdoshlar qanday talafuz etayotganligiga qaratish foydalidir. Bu mashqlarning ahamiyati kattadir. Alohida tovushlarning akustik va nutq hususiyatlarini ongliy o`zlashtirishda artikulyatsiyadagi noaniqligi yetarlicha tiniq emasligi bolalarda korreksiya qilishga o`z navbatida ularning diqqatini tovush tamoniga qaratishga xizmat qiladi.

Har bir tovushni alohida aniq va tiniq talafuz etish nutqni ravonligini yashilash eshitish idrokini faollashtiradi. Uning talafuz bilan o`zaro tasirini yaxshilaydi. Talafuzni aniqligi, tovushlarni differensial idrok etish ko`nikmalari bolalarga o`qish va yozishni o`muoffaqiyatli o`zlashtirish yordam beradi.

Soz tarkibida tovushlarni ajratish unli tovushlarni "A" "O" "I" "U" ajratishdan boshlandi, undosh tovushlar bilan tanishishni esa so`z boshi yoki ohirida joylashgan (mix,non, tom,) portlovchi va sanor (R,L) tovushlardan boshlanadi.

Kiyinchalik bolalar o`rganilayotgan tovushni so`zni xoxlagan qismidan ajratishga o`rganadilar.

Asosiy e`tiborni talafuzi yoki eshitilishi jihatidan yaqin bo`lgan tovushlar ("O"- "O'") jarangli-jarangsiz, sirg`aluvchi vashovqinli tovushlarga qaratish kerak. Bolalar ularni differensial idrok etishlari uchun avval bolalarni yuqori tovushlardan birini akustik va artikulyatsion xususiyatlari bilan tanishtirish maqsadga muvofiq, shunda bolalar o`rganilgan tovushni oson taniy oladilar va ajratadilar, bundan tashqari bu tovushlarni juft tovushi bilan ham solishtirish zarur bo`ladi. (S-Z, Sh-J, P-T, V-F).

Bolalarni nutq tovushlarini va ularni talafuzini hususiyatlarini idrok etishga tayangan holada tarbiyachi bolalar diqqatini bazi tovushlarni ovoz bilan erkin

talafuz etishga ularni ashulla qilib aytish mumkinligiga boshqa tovushlarni talafuzida esa lablar, tish vatil to`siq to`liq hosil qilishiga bog`liqligiga qaratiladi. Shunday qilib bolalr ona tilining tovushlarini ikkiasosiy guruhi (unli va undosh)ning muhim belgilari bilan tanishadilar; ularga mos termenlarni o`zlashtiradilar; unlilar qizil, undoshlar ko`k rangdagi doirach abilan belgilashni o`rganadilar. Bolalr turli tovush koplekslarida tovushni taniy olish va ajratishga o`rganishgach ular chuncha mos harif bilan tanishdilar. Maktabgacha yoshdagi nutq nuqsoniga ega bolalrni o`qitishda o`quv materiallarini bayon etish formasi muhim ro`l o`ynaydi. Ammo o`yinda faqat ilmiy malumotlarni qo`llash zarur, boalar faoliyatiga ega o`rganilayotgan mavzu so`zni aytilish, uni eshita olish, undan ma`lum tovushlarni ajratish o`quv vazifasini yechishga bevosita qaratilgan bo`lishi kerak.

XULOSA

O`qzilgan tekshirish ishlarimiz natijasida hamda adabiyotlarni o`rganish asosida quydagi xulosalarni keltirishimiz mumkin: adabiyotlarni taxlil qilish nutqi to`liq rivojlanmagan bolalrni savod o`rgatishga tayyorlashning o`ziga xos tamonlari ilmiy jihatdan O`zbekistonda aniqlanmaganligi aniqlandi;

-6 yoshli maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalr nutqining talafuz tomonidagi kamchiliklar aniqlandi, bolalarda sirg`aluvchi tovushlar talafuzidagi kamchiliklar yani "S" tovushidagi kamchiligi 38.7% 37.7% "Z" tovushidagi kamchilik 37.2% "Sh" tovushidagi kamchilik esa 41.9%ni "J" tovushidagi kamchilik esa 19.3% "Ch" tovushidagi kamchilik esa 6.4%ni tashkil etdi. Sonar "R" tovushidagi kamchiliklar 29%, "L" tovushidagi esa 22.5%ni tashkil etdi. Til orqa "K" tovushdagi kamchilik 9.6% "Ch" tovushida 6.4% "X" tovushida esa 6.4% tashkil etishi aniqlandi.

- Maktabgacha tarbiya yoshiodagi bolalrda tovush tahlil tarkib qilish ko`nikmalarini aniqlash natijasida bolalarda tahlil tarkib qilish ko`nikmalari shakilanmaganligi aniqladik.

Biz bolalrda tahlil tarkib qilish ko`nikmalarini shakillanmaganligini patalogiya sifatida tahlil qilmadik. Chuinkiy og`zaki muomilada bo`lish bola oldiga so`zning tovush tahlilining maxsus rivojlantirishni maqsad qilib qo`ymaydi. Yuqoridagilarni hisobga olgan hold 6-yoshli bollarda tovush tahlil-tarkib qilish malakalarini shakillantirish uchun metopdik tavsiyalar berishga harakat qildik.

Maktabgacha yoshdagi nutqi to`liq rivojlanmagan bolalarni savo o`rgatishga ulardagi tovush talafuzi kamchiliklarini tuzatishga, fonematik idrokni rivojlantirishga tovush taxlil tarkib qilish ko`nikmalrni shakillantirishga qaratilgan ishlarni birgalikda olib boorish zarur deb bildik.

Agar bolani biunga maxsus o`rgatilmasa o`qish va yozishni muvaffaqiyatli o`zlashtira olmaydi, maktabda savod o`zlashtirishda qiyinchiliklarga duch keladi.

Yuqorida tavsiya etilgan yo`lar bilan bolalrni savodga o`rgatilsa maktabda samarli bilim olish uchun zamin yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyaotlar:

1. Karimov I.A “Barkamol avlod orzusi” 2-nashir. “O`zbekiston milliy entiklopediyasi nashriyoti”. Toshken 2000-yil.

2. Karimov I.A “Barkamol avlod O`zbekiston taraqqiyotining poydevori” Toshkent “Sherq” nashriyoti 1997-yil.
3. “Boshlang`ich ta`lim va defiktologiya taliming samaradorligini oshirish masalari”. Ilmiy metodik maqolalar to`plami “Toshkent” 2000-yil.
4. Abdullayeva K. , A. Nazarov, Sh. Yo`ldoshiyeva “Savodga o`rgatish metodikasi” Toshkent 1996-yil
5. Kashe G.A “Padgatovka k shkole detey s nedororazvitieriche” “Maskva” prosvisheniye 1986-yil.
6. Kashe G. A, R. I Shuter. Metodiy korreksionix narusheniya zuvukovoy storannieriche u deity “Kiev” 1978-yil.
7. Mo`minova L. Ayupova L. “Logopediya” “Toshkent” 1993-yil.
8. Mo`minova Lola. Ayupova N. maktabgacha uoshdagi bolalrni savodga o`rgatish (metodik qo`llanma) 1955-yil.
9. Mo`minova L. Nutqi to`liq rivojlanmagan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni logopedik tekshirish va o`qitish. “Toshkent” 1992-yil.
10. Felecheva T.B, Chirkina R.B psixolo – pedagogichiskiy osnovi koreksi obshego nedorazvitea u dete do shkolnoga vozrasta. J. Defiktologiya 1985-yil
11. Felecheva T.B Chirkina G.V izucheniya detie s ONR v spes. Detikom sadu. Jurnal difiktologiya 1985-yil.
12. Shomaxmudova R. Mo`minova L. bolar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish. “Toshkent” o`qtuvchi 1993-yil
13. Shodiyeva K. Maktabgacha yoshdagi bolalrni to`g`ri talaffuzga o`rgatish “Toshkent” o`qituvchi 1955-yil.
14. Yastripova A. Korreksiya narusheniye rechi u uchastsya obshe obrazovatolnoe shkole “Maskva” 1984-yil.
15. G`afforova g. G`ulomova H. Eshmurodova G. 1-sinfda savodga o`rgatish darslari. “Toshkent” o`qituvchi 1966-yil.

Abdulla Qodiriy nomli Jizzax Davlat pedagogika instituti Pedagogika - psixologiya fakul'teti Defektologiya ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi Imomova Irodaning "Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarni savodga o'rgatishning texnologik asoslari" nomli bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbar

X U L O S A S I

Bolalar nutqining maktabgacha tarbiya yoshida shakllantirish, o'z ona tilisini egallashda, tevarak atrof bilan tanishishda, shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Nutq kamchiliklari bolaning ruhiy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bola fikr almashishga qiynaladi, bilish faoliyatining shakllanish jarayoni orqada qoladi. Bu esa shaxsning har tomonlama to'liq rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Hozirgi kunda bolalarda og'ir nutq buzulishlari dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda va faqatgina nazariy emas, balki amaliy jihatdan ham qiziqish uyg'otmoqda. Imomova Irodaning tadqiqot ishini dolzarbliq Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarni savodga o'rgatish texnologiyasini o'rganishga qaratilgan. Bitiruv malakaviy ishining muammoli tomoni qilib, nutq rivojlanishidagi nuqsonlar bolalarning intellektual tarrafiyotiga, ularning savod o'rganishga tayyorlashga, savod o'rganishiga salbiy ta'sir etadi. Shuning uchun nutq nuqsoni bor bolalarni nutq rivojlanishining o'ziga hos xususiyatlarini o'rganishning ahamiyati katta, ushbu masalani hal etishga doir urinishlar olib borgan kuzatishlar talaba bitiruv malakaviy ishida bayon etilgan.

Tadqiqotning birinchi bobi «Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarni savodga o'rgatish texnologiyasini ilmiy nazariy asoslari» deb nomlanib, nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar ta'limi masalalarini korreksion pedagogik va psixologik taxlili, nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar nutqini tekshirish va taxlil qilish metodlaridan foydalanishning pedagogik ahamiyatini ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan.

Tadqiqotning ikkinchi bobi "Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarni savodga o'rgatishni eksperimental o'rganish" deb nomlanib nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarni

savodga o`rgatishni eksperimental o`rganish va ulardan foydalanishning ilmiy-amaliy ahamiyati keng yoritilgan.

Maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida Nutqi to`liq rivojlanmagan bolalarni faoliyati kuzatilgan va o`rganilgan savodga o`rgatish faoliyatining roli bola hayoti va rivojlanishida katta o`rin tutishi kuzatilgan. Olib borilgan tajriba natijalari muallifga tanlangan mavzuni asoslab berishga imkon bergan.

Imomova Iroda tomonidan bajarilgan bitiruv malakaviy ishi xususan ishlab chiqilgan va o`rganilgan pedagoglar va tarbiyachilar uchun muhim amaliy ahamiyatga ega. Ish bitiruv malakaviy ishiga qo`yilgan barcha talablarga javob beradi.

Ilmiy rahbar:

**Nizomiy nomli TDPU
Defektologiya kafedrası
prof.L.R.Mo`minova**

Abdulla Qodiriy nomli Jizzax Davlat pedagogika instituti Pedagogika - psixologiya fakul'teti Defektologiya ta'lim yo`nalishi 4-bosqich talabasi Imomova Irodaning “Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarni savodga o'rgatishning texnologik asoslari” nomli bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Ba'zi bolalar normal eshitish va aqliy faoliyatga ega bo'lsalarda tilning har bir komponentlari, ya'ni fonetik, leksik va grammatik shakllanishida keskin orqada qolish hollari kuzatiladi. Bu nutq buzulishini birinchi bo'lib R.Ye.Levina tomonidan aniqlangan va nutqning umumiy rivojlanmaganligi deb belgilangan.

Bitiruv malakaviy ishining mavzusi hozirgi kunda dolzarb muammolardan biri bo'lib, talaba Imomova Iroda ana shu mavzuning dolzarbligini asoslab berish uchun ishning maqsad va vazifalarini belgilagan. Ishlab chiqilgan maqsad vazifalar mavzuni o'rganishga qaratilgan.

Tadqiqot ishi ikki bob, 4 ta paragraf, tajriba-sinov, xulosa va tavsiyalardan iborat bo'lib, reja mavzuni ochib berishga qaratilgandir.

Tadqiqotning birinchi bobi «Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarni savodga o'rgatish texnologiyasini ilmiy nazariy asoslari» deb nomlanib, nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar ta'limi masalalarini korreksion pedagogik va psixologik taxlili, nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar nutqini tekshirish va taxlil qilish metodlaridan foydalanishning pedagogik ahamiyatini ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan va mazmunli ochib berilgan.

Tadqiqotning ikkinchi bobi “Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarni savodga o'rgatishni eksperimental o'rganish” deb nomlanib nutqi to'liq rivojlanmagan

bolalarni savodga o`rgatishni eksperimental o`rganish va ulardan foydalanishning ilmiy-amaliy ahamiyati kabi masalalarni o`z ichiga olgan.

Olib borilgan tajriba-sinov asosida bitiruv malakaviy ishi xulosalangan va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu tavsiyalar hozirda ta'lim- tarbiya jarayoni bilan shug`ullanayotgan tarbiyachilar va defektolog - logopedlar uchun muhim amaliy ahamiyatga egadir.

Taqrizchi:

o`qit.X.Muzaffarova

**Abdulla Qodiriy nomli Jizzax Davlat pedagogika instituti Pedagogika -
psixologiya fakul'teti Defektologiya ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi
Imomova Irodaning "Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarni savodga
o'rgatishning texnologik asoslari" nomli bitiruv malakaviy ishiga**

T A Q R I Z

Nogiron bolalarni ma'naviy va jismonan barkamol inson bo'lib yetishishi uchun pedagogik omilni, ya'ni tarbiyaning maktabgacha va maktab ta'lim jarayoniga alohida e'tibor berishini talab qiladi. Maxsus maktabgacha tarbiya muassasalari va maktablarda ta'limni to'g'ri tashkillashtirish bolalar dunyoqarashini, fikrlash, sezgi va haraktlar muvofiqligini rivojlantiradi. Nutqning to'liq rivojlanmaganligi – bu intellekti va eshitish qobiliyati normal bo'lgan holda nutq sistemasining hammakomponentlarini shakllanishida kamchiliklar kuzatiladigan murakkab nutq buzulishidir. Ana shunday dolzarb masala talaba Imomova Irodaning mavzuida aks etgan bo'lib, bitiruv malakaviy ishining kirish qismida, ishning maqsad, vazifalari belgilangan. Qo'yilgan maqsad asosida ishning nazariy qismida to'plangan ma'lumotlar asosida maktabgacha yoshdagi Nutqning to'liq rivojlanmaganligi asosida korreksiyalash ishlarining amalga oshirilishi va vazifalari to'liq yoritib berilgan.

Tadqiqot ishi ikki bob, 4 ta paragraf, tajriba sinov, xulosa va tavsiyalardan iborat bo'lib, reja mavzuni to'liq ochib berishga qaratilgandir.

Birinchi bob nazariy qism hisoblanib, talaba ushbu bobda psixolog – pedagog va olimlarning tadqiqotlariga hamda to'plagan manbalarga asoslanib, Nutqning to'liq rivojlanmaganligi turlari kelib chiqish sabablari o'rganilgan hamda ahamiyatini ochib berilgan.

Tadqiqotning ikkinchi bobi amaliy qism hisoblanib, bobda tadqiqotchi Nutqning to'liq rivojlanmagan bolalar harakatlarini korreksiyalovchi o'yin turlari, ular orqali maktabgacha yoshdagi nutqning to'liq rivojlanmagan bolalardagi psixologik va jismoniy kamchiliklarni bartaraf etish yo'llari, maktabgacha yoshdagi nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarni savodga o'rgatishni eksperimental o'rganishni ilmiy-amaliy ahamiyati asoslab bergan. Olib borilgan tajriba-sinov asosida bitiruv malakaviy ishi xulosalangan va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu tavsiyalar hozirda ta'lim jarayoni bilan shug'ullanayotgan o'qituvchi va talabalar uchun muhim amaliy ahamiyatga egadir.

Taqriz: